

BOLALAR FOLKLORINING O‘ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

magistaranti Jo‘rayeva Saodat Ulug‘bek qizi

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar folklorining paydo bo‘lishi, rivolanishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar folklori, “Boychechak”, O‘zbek xalq ijodi”, jahon bolalar folklori.

Annotation: the emergence of children's folklore in this article, development and its peculiarities.

Keywords: children's folklore, “Boychechak”, “Uzbek folk art”, world children’s folklore.

Folklor hamma davrlarda ham ijod uchun poydevor sanalib kelgan. Har bir inson uchun ilhom manbai bo‘lib kelgan bu sarchashmada bolalar va kattalarga birdek e’tibor qilingan. Bolalar folklori ko‘pincha kattalar tomonidan ijro etilgan. Kattalarning go‘dakka ism qo‘yib allalashidan boshlab, toki ulg‘aygunga qadar bo‘lgan rasm-rusumlar bolalar folklorining bir qismini tashkil etadi.

Biz bolalar folklori haqidagi ilk qarashlarni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida uchratamiz. Unda tarixiy asosdan to bugungi ko‘rinishga kelib qolgan folklor namunalari haqida fikrlar bayon etiladi.

Bolalar foklori namunalari uzoq vaqt qo‘l tegmagan mavzulardan biri bo‘lib kelgan edi. XX asrdan boshlab bu mavzuga qo‘l urilgan bo‘lsa-da, orada juda ko‘p uzilishlar bo‘lib qoldi. Elbek to‘plab, tartib berib 1937-yilda chop etirgan «Bolalar qoshigi» toplamidan O. Safarov tartib bergen «O‘zbek xalq ijodi» seriyasida 1984-yilda bosilib chiqqan «Boychechak» to‘plamigacha yarim asrlik uzilishlarni ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek bolalar folklorini o‘rganish 60-yillardan boshlab o‘zgacha tus ola boshladi. Z.Husainovaning «O‘zbek topishmoqlari» (1966), G.Jahongirovning «O‘zbek bolalar folklori» (1975), shuningdek, O.Safarovning

«Bolalarni erkalovchi ozbek xalq qoshiqlari» (1983), «O‘zbek bolalar poetik folklori» (1985), «Alla-yo alla» (1999), «Chittigul» (2004), Sh.Galievning «O‘zbek bolalar o‘yin folklori» (1998) singari tadqiqotlari bilan bolalar folklori yanada boyidi.

Jahon adabiyotida esa atoqli o‘qituvchi K. D. Ushinskiy birinchi marta bolalar folkloriga jiddiy e’tibor berdi. 60-yillarda 19-asr Uchitel jurnalida bolalar folklor asarlari nashrlari va ularni bolaning fiziologiyasi va psixologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish paydo bo’ldi. Shu bilan birga, bolalar uchun xalq asarlarini tizimli ravishda to’plash boshlandi. Birinchi bolalar asarlari to’plami - P. Bessonov "Bolalar qo’shiqlari" - 1868 yilda nashr etilgan bo’lib, unda qo’shiqlar bilan 19 o‘yin va 23 sanoq qofiyalari mavjud. Keyinchalik E. A. Pokrovskiy va P. V. Sheinning bolalar folklor to’plamlari paydo bo’ldi, ular keyingi nazariy ishlarga asos bo’ldi. 1921 yilda Rus geografiya jamiyatida (RGS) bolalar folklori, kundalik hayoti va tili bo'yicha komissiya tuzildi. 1920-yillarda G. S. Vinogradov tomonidan taklif qilingan bolalar folklorining birinchi tadqiqotlari va atamaning o’zi paydo bo’ldi. 1960-yillardan beri Sibir rus bolalar folklorini M. N. Melnikov o‘rgangan

Bolalar folklori ijtimoiy muhit o‘zgarishi bilan o‘zgara bordi. Bolalarning dunyoqarashi va fikrlash doirasi ularning xarakteriga o‘zining ta’sirini o‘tqazdi. Bolalar tomonidan bugungi kunga qadar saqlanib qolganturli xil qo’shiqlar orasida Ramazon qo’shiqlarining o‘rnii o‘zgachadir. Ramazon qo’shiqlari shaharda va qishloqda turli xilda kuylanadi. Shahar joylarida ramazon qo’shiqlari ro‘zaning birinchi kunidan boshlab, kuylansa, qishloqlarda esa, uch kun o‘tib eshikma-eshik yurib quyidagicha kuylanadi:

Ro‘zani uch kun tutib keldik mana,

Ro‘zani zakotini bering qani.

Ro‘zada so‘ygan qo‘yning go‘shi qani?

Go‘shini olib chiqing hali-hali.

Yigitlar pichoq olib o‘ynagani,

Yigitlarning pichoqlari tilla ekan,

Shu uyning egalar mulla ekan.

Har bir joining bolalari kuylaydigan o‘ziga xos qo‘shiqlari mavjudki, ular o‘zida asriy an’analarni mujassam etadi. Yuqorida keltirilgan ramazon qo‘shig‘i ham voha uchun kuylanadigan, Shahrисabz ramazonlaridan biridir. Adabiy matnlarda ham o‘zgachalikni ko‘rishimiz mumkin.

Bolalarning o‘yin bilan bog‘liq qo‘shiqlarida ham folklor uyg‘unligi borligini kuzatamiz. Besh tosh, yakkam-dukkam, ko‘k terak o‘yinlarida kuylangan har bir qo‘shiqda o‘ziga xos majoziy ritm bilan o‘ziga tortishlikni kuzatamiz. Ko‘k terak o‘yinida bolalarcha beg‘uborlik quyidagicha ifodalanadi:

Oq terakmi ko‘k terak,

Bizdan sizga kim kerak?

Shu ikki jumlaning o‘ziyoq milliy an’analarni o‘ziga singdirgan. Kattalar tomonidan bolalarga ushbu qo‘shiqlar yetqazilgan va og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan.

Umuman olganda xalq ijodiyoti mislsiz bir ummondir. She’riyatning ko‘pgina asarlari murakkab bir davrni o‘tqazgan. Har bir topilgan matnni muallifsiz ekanligi, joyi va vaqt nomalumligi ijodiy jarayonni orqaga sura olmaydi. Har bir omon qolgan matn xalq poetikasini baholash uchun xizmat qiladi. Bu borada hali folklore oldida turgan vazifalar talaygina. Jamiyatning bir bo‘g‘ini hisoblangan bolalar ularning qadr qimmati adabiyot oldida ham muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T., va b. O‘zbek xalq poetik ijodi. Toshkent: O‘qituvchi.1990.
2. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T., 2008. -150 bet.
3. O‘zbek bolalar antologiyasi. She’riyat. 1-qism. –Sharq. –T.: 2006.
4. O‘zbek bolalar antologiyasi. Nasr. 2-qism. –Sharq. –T.: 2006.